

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

muhojir xay‘at raisi

M. M. Karimova

2025 y.



**« TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

direktor

X. Musadjanova

2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

## **Operatsion hamshira**

(sikl bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlari uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(288-kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVCHILAR:**

T.X.Boynazarov

TDTU travmatologiya va ortopediya  
bo'limi shifokori

U.U.Dostanova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

N.A. Shoislomova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

**TAQRIZCHILAR:**

R.S.Nosirov

TDTU bolalar ko'p tarmoqli klinikasi  
xirurgiya bo'limi bosh  
shifokor o'rinbosari

A.K.Ganiyev

TDTU travmatologiya va ortopediya  
kafedrasi dotsenti,t.f.n.

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025.y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi,muhokama  
qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025.y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida horijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Operatsion hamshira" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo'lgan operatsion hamshiralarni 288 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish" moduli kiritildi. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

O'qish natijasida operatsion hamshiralarning mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish, kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Operatsiya hamshiralarni jarrohlik amaliyotlarida ishtirok etish, operatsiya xonasini tayyorlash, sterillik qoidalariga qat'iy rioya qilish, jarroh va anesteziologga yordam berish hamda bemor xavfsizligini ta'minlash Operatsion hamshiralarning har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

### 1.2. Vazifalar:

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini yangilash;
- operatsiya hamshiralari jarrohlik bo'limida ishlash uchun zarur nazariy bilimlarni berish.
- operatsiya xonasini sanitariya-gigiyena talablari asosida tayyorlashni o'rgatish.
- asbob-uskunalarini tayyorlash, sterilizatsiya qilish va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
- jarrohlik amaliyoti paytida jarroh va anesteziologga assistentlik qilishni o'rgatish.
- bemorni operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan keyingi parvarish jarayonlarida ishtirok etish malakalarini shakllantirish.
- aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.
- operatsiya paytida asboblarni va bint-materiallarni hisobini yuritishni o'rgatish.
- shoshilinch holatlarda tezkor va to'g'ri tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmasini rivojlantirish. Operatsiya hamshiralari jarrohlik bo'limida ishlash uchun zarur nazariy bilimlarni berish.

- operatsiya xonasini sanitariya-gigiyena talablari asosida tayyorlashni o'rgatish.
- asbob-uskunalarini tayyorlash, sterilizatsiya qilish va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
- jarrohlik amaliyoti paytida jarroh va anesteziologga assistentlik qilishni o'rgatish.
- bemorni operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan keyingi parvarish jarayonlarida ishtirok etish malakalarini shakllantirish.
- aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.
- operatsiya paytida asboblardan va bint-materiallar hisobini yuritishni o'rgatish.
- shoshilinch holatlarda tezkor va to'g'ri tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmasini rivojlantirish.
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash;
- operatsiya jarayonining bosqichlari va tartibini tushuntirish;
- operatsiyadan oldin bemorni tayyorlash va zarur tibbiy muolajalarni bajarishni o'rgatish;
- jarroh va boshqa tibbiyot xodimlariga operatsiya davomida amaliy yordam ko'rsatish;
- bemorni operatsiyadan keyin kuzatish, asoratlarning oldini olish va parvarish qilish;
- operatsiya bilan bog'liq tibbiy ma'lumotlarni to'g'ri qayd etishni o'rgatish.
- xirurgik stasionarlar (bo'limlar)da shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya- gigiyenik, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarida shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mukammaallashtirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi Respublika davolash profilaktika muassasalarining operatsiya blokida faoliyat olib borishni rejalashtirgan, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini amaliyotda qo'llay olishi;
- amaldagi meyoriy xujjatlar bilan ishlash, soxa bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda qo'llay olishi;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida ang'lay olish va bartaraf eta olish;
- kasb faoliyatida xirurgik asboblardan va bog'lov materiallarini xirurgga uzatish texnikasi, chok materiallari, ularning turlari, nomlari va ishlatilishi, ishlatilgan asboblardan va bog'lov materiallarini hisobini yuritish tartibini amaliyotda qo'llay olish malakasini oshirish;
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariiga ega bo'lishi.

**1.5. Dasturning dolzarbligi:** "Operatsion hamshira" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirish hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Tibbiyot amaliyotida jarrohlik amaliyotlari soni ortib borayotgani va operatsiya jarayonida bemor xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etayotgani operatsiya hamshiralari yuqori malakali kadr sifatida tayyorlashni talab etadi. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar, yangi jarrohlik usullari va sterilizatsiya standartlari joriy etilayotgan sharoitda operatsiya hamshiralari bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borish zarur.

**1.6. Dastur hajmi:** 2 oy 288 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ajralmagan holda.

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi "O'zR SSV 2020 yil 15 iyundagi №160-

sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik 30 daqiqa.

**1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Operatsion hamshira" bo'yicha 288 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

**2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- tinglovchining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- hamkasblar va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- jarrohlik asoslari, aseptika va antiseptika qoidalarini bilish.
- operatsiya xonasining sanitariya-gigiyena talablarini bilish.
- jarrohlik asboblari va uskunalarning turlari va vazifalarini bilish.
- sterilizatsiya usullari va steril materiallar bilan ishlash qoidalarini bilish.
- jarrohlik amaliyotlarining bosqichlari haqida tushunchaga ega bo'lish.
- operatsiya xonasini amaliyotga tayyorlash.
- jarrohlik asboblari, bint va materiallarni tayyorlash va joylashtirish.
- operatsiya paytida jarrohga asboblarni to'g'ri va tez uzatish.
- asboblar va materiallar hisobini yuritish.
- operatsiya jarayonida sterillikni saqlash.
- operatsiya xonasi ishini to'g'ri tashkil qilish.
- operatsiyaga tayyorgarlik jarayonlarini muvofiqlashtirish.
- tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish.
- operatsiya jarayonida tibbiy jamoa bilan samarali hamkorlik qilish.
- bemorni operatsiyaga tayyorlashda ishtirok etish.
- operatsiya paytida infeksiya profilaktikasini ta'minlash.
- asboblar va materiallar to'liqligini nazorat qilish.
- bemor xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan protokollarga rioya qilish.
- operatsiya vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarda tezkor harakat qilish.
- reanimatsion yordam ko'rsatishda ishtirok etish.
- qon ketish, shok va boshqa favqulodda holatlarda tibbiy jamoaga yordam berish.
- tibbiy jamoa bilan samarali muloqot qilish.
- tibbiy etika va deontologiya qoidalariga amal qilish.
- bemor va uning yaqinlariga nisbatan hurmat va maxfiylikni saqlash.
- operatsiya turlariga ko'ra xirurgik asboblarni yig'ish, operatsiya xonasida asbob uskunalarning hisobini to'g'ri olib borish, ularni to'g'ri saqlash va yaroqlilik muddatini uzaytirish;
- operatsiya jarayonida sarf qilinadigan bog'lov va tikuv anjomlari, dori-darmonlarning hisob-kitobini to'g'ri olib borish;
- yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlash va o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita olish;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi.

## **3.0. DASTUR MAZMUNI**

**3.1. "Operatsion hamshira" 288 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o'quv rejasi.**

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari			Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	60	34	26		

1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6			
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4		
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6			
1.5	Modul: Infekzion nazorat	12	8	4		
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4		
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	12	6	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fani modullari</b>	<b>222</b>	<b>74</b>	<b>148</b>		
2.1.	Modul: Operatsiya xonasining tuzilishi va operatsiya xonasida texnika xavfsizligini ta'minlash. Operatsion hamshiraning lavozimlik burchlari.	18	6	12		
2.2.	Modul: Aseptika va antiseptika. Bog'lov materiallarini tayyorlash va biksga joylashtirish.	12	4	8		
2.3.	Modul: Og'riqsizlantirish va uning turlari.	12	4	8		
2.4.	Modul: Xirurgik operatsiyalar. Operatsion hamshiraning operatsiyaga tayyorlanishi. Qo'llarga xirurgik ishlov berish. Operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlarda bemorlarni kuzatish.	36	12	24		
2.5.	Modul: Qon ketishi. Qon ketish turlari. Transfuziologiya asoslari. DesmurgiY.	24	8	16		
2.6.	Modul: Shikastlanishlar va jarohatlar.	42	14	28		
2.7.	Modul: Xirurgik infeksiY. Yiringli operatsiyalardan keyin kasalxona ichi infeksiyasini oldini olish.	24	8	16		
2.8.	Modul: Qorin devori va qorin bo'shlig'i a'zolarining xirurgik kasalliklari.	36	12	24		
2.9.	Modul: Urologik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.	12	4	8		
2.10.	Modul: Onkologik kasalliklar. Operatsiyadan keyingi kuzatiladigan asoratlar va bemorlarni parvarishi.	6	2	4		
<b>3.0</b>	<b>Attestatsiya</b>	6				6
	<b>Jami:</b>	<b>288</b>	<b>108</b>	<b>174</b>		<b>6</b>

### “Operatsion hamshira” ixtisoslashtirish yo'nalishi o'quv modullarining mazmuni

**1.1. Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari

hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot hamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot sohasiga aloqadorligini tushuntirish hamda shu sohaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi harflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish.

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot. Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.** Sterilizatsiyada zamonaviy usullar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab

darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish va ishlash. Sterilizatsiyaning sifatini aniqlash usullari va ularni o'tkazish tartibi. Texnika xavfsizligi qoidalari va ularga amal qilish.

**1.7. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.** Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi. Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

### **2.1. Modul. Operatsiya xonasining tuzilishi va operatsiya xonasida texnika xavfsizligini ta'minlash. Operatsion hamshiraning lavozimlik burchlari.**

O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chikarilgan mutaxassislikka oid buyruqlar va ular asosida ishlash. Operatsion blok tarkibi. Operatsion blok zonalar va unga qo'yiladigan talablar. Operatsiya xonasining asosiy asbob-uskunalar. Elektr, issiq va sovuq suv, oqava suvlari tarmoqlari bilan ta'minlanishning ahamiyati. Kislorod bilan taminlovchi markazlashgan tarmoqlar. Havo almashtiruvchi uskunalar. Operatsion blok germetikligi. Bakteritsid lampalardan foydalanish. Operatsion blokda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. Operatsiya xonasida texnika xavfsizligini ta'minlash. Tibbiy asboblarning yerga ulanganligini taminlash. Elektr asboblari ulangan tarmoqlarning yopiq bo'lishini taminlash. Operatsion hamshiraning ish jarayoni. Operatsiya blokda yuritiladigan meyoriy hujjatlarni yuritish tartibi. Operatsiya xonasida asbob uskunalarining hisobini to'g'ri olib borish, ularni to'g'ri saqlash va yaroqlilik muddatini uzaytirish Operatsiya xonasidagi tibbiy uskunalarini ishlatish tartib qoidalari. Operatsiya jarayonida sarf qilinadigan bog'lov va tikuv anjomlarini, dori-darmonlarning hisob-kitobini to'g'ri olib borish. Operatsiya jarayonida ishlatiladigan makroreparatlarni gistologik tekshiruvlarga jo'natish tartibi va natijasini olish. Endoskopik asboblari, ularning turlari va tuzilishi. Endoskopik asboblarni ishlatish tartibi, yuqumsizlantirish va saqlash. Yuqori chastotali xirurgik apparatlar (MSKT, MRT) va ularni qo'llashdagi texnika xavfsizligi.

### **2.2. Modul. Aseptika va antiseptika. Bog'lov materiallarini tayyorlash va biksga joylashtirish.**

Aseptika va sterilizatsiya. Sterilizatsiyaning zamonaviy usullari. Avtoklavlash. Bog'lov materiallari va ularni tayyorlash meyorlari. Biksga bog'lov materiallarini joylash usullari. Kimyoviy vositalar yordamida kesadigan, optik asboblari, chok materiallarini sterilizatsiya qilish usullari. Qo'llarni operatsiyaga tayyorlash usullari. (GIZ) Operatsion maydonni tayyorlash. Infeksiya. Yiringli jarayon chaqiruvchi mikroblar. Infeksiyaning organizmda tushish yo'llari. Endogen va ekzogen infeksiya, ularning profilaktikasi. Antiseptika va uning usullari. Antiseptik vositalar, turlari va ularning qo'llanilishi. Antiseptik moddalar qo'llanilganda kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar.

### **2.3. Modul. Og'riqsizlantirish va uning turlari.**

Og'riq va og'riqsizlantirish haqida tushuncha. Og'riqsizlantirish turlari. Umumiy og'riqsizlantirish (narkoz). Narkoz turlari (ingalyatsion va noingalyatsion), bosqichlari va darajalari. Umumiy og'riqsizlantirishda qo'llaniladigan narkotik preparatlar va ularning xossalari. Ingalyatsion narkoz uchun niqoblar, apparatlar va ular yordamida narkoz berish texnikasi. Ingalyatsion narkozda yuz beradigan asoratlar va ularning profilaktikasi. Ingalyatsion narkozga ko'rsatma va moneliklar. Bemorni narkozga tayyorlash (premedikatsiya). Intubatsion narkoz va uning afzalliklari. Noingalyatsion narkoz va uning turlari. Sun'iy gipotermiya. Sun'iy qon aylanishi tizimi. Mahalliy og'riqsizlantirish, uning turlari (sovutish, namlash, infiltratsion, futlyar, o'tkazuvchi yo'llar, vena ichi va arteriya ichi, suyak ichi, peridural va orqa miya) va ularda qo'llaniladigan preparatlar. Mahalliy anesteziyada kuzatiladigan asoratlar va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish. Umumiy va mahalliy og'riqsizlantirishdan keyin bemorlarni parvarish qilish.

#### **2.4. Modul. Xirurgik operatsiyalar. Operatsion hamshiraning operatsiyaga tayyorlanishi. Qo'llarga xirurgik ishlov berish. Operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlarda bemorlarni kuzatish.**

Xirurgik operatsiyalar to'g'risida tushuncha, ularning turlari. Operatsiyadan oldingi davr. Bemorlarni rejali operatsiyaga tayyorlash. Yoshi ulg'aygan va keksa yoshli bemorlarni operatsiyaga tayyorlash xususiyatlari. Xolsizlangan bemorni operatsiyaga tayyorlash. Bolalarni operatsiyaga tayyorlash xususiyatlari. Bemorlarni operatsiya xonasiga transportirovka qilish. Bemorlarni shoshilinch operatsiyaga tayyorlash. Siydik qopini kateterizatsiya qilish. Me'dani zondlash. Sifonli xuqna o'tkazish. Xirurgik operatsiya bosqichlari. Qo'llarni yuqumsizlantirish usullari. Operatsion hamshiraning operatsiyaga tayyorlanishi. Qo'llarga xirurgik ishlov berish. Qo'llarga oqar suvda sovun bilan ishlov berish (40-60 sek). Qo'llarga gigiyenik ishlov berish (20-30 sek). Qo'llarni antiseptik vosita yordamida yuqumsizlantirish (90-180 sek). Steril qo'lqoplarni kiyish va yechish tartibi. (GIZ) Operatsiya hamshirasini steril xalat kiyish tartibi. Umumiy va maxsus xirurgik asboblar. Operatsiya turiga ko'ra xirurgik asboblarni to'plash. Katta va kichik xirurgik asboblar stolini tayyorlash texnikasi. Operatsiya brigadasi, uning tarkibi. Operatsiya hamshirasini brigada a'zolarining qo'llariga xirurgik ishlov berishini nazorati. Steril xalat va qo'lqoplarni xirurgik brigada a'zolariga kiydirish tartibi. Bemorlarni operatsiya stolidagi vaziyatlari. Operatsiya vaqtida brigada a'zolarining turadigan joyi. Asboblar va bog'lov materiallarini xirurgga uzatish texnikasi. Asboblarni kornsang yordamida uzatish texnikasi. Igna tutqichni ishga tayyorlash texnikasi. Chok materialari, ularning turlari, nomerlari va ishlatilishi. Xirurgik ignalar, ularning turlari, nomerlari va ishlatilishi. Asboblarni uzatayotganda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar. Bog'lov materialini uzatish. Operatsion maydonni yuqumsizlantirish usullari. Ishlatilgan asboblar va bog'lov materiallarini hisobini yuritish tartibi. Ishlatilgan asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash. Operatsiyadan keyingi davr. Operatsiya xonasini tozalash usullari. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni kuzatish va parvarish qilish, kuzatiladigan erta va kechki asoratlar, ularning profilaktikasi. Choklarni qoldirish muddatlari va olish texnikasi. Operatsiyadan keyin kuzatiladigan asoratlar. Terminal xolat bosqichlari, belgilari. Yurak-o'pka reanimatsiyasining bosqich va tadbirlari. Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi.

#### **2.5. Modul. Qon ketishi. Qon ketish turlari. Transfuziologiya asoslari. Desmurgiy.**

Qon ketish tushunchasi, tasnifi, turlari, belgilari, darajalari. O'tkir qon ketish belgilari. Qon ketishini vaqtinchalik to'xtatish usullari: qon tomirni bosish, jgut solish, bo'g'imdan bukish, bosib turuvchi bog'lam qo'yish, arteriya o'zanini barmoq bilan bosish, qonayotgan tomirga qisqich qo'yish, jarohatni tamponlash. Qon ketishini uzil-kesil to'xtatish usullari: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik. Qon yo'qotgan bemorlarni ahvolini baholash. Turli etiologiyali qon ketishlarda hamshira tashxisi, uchraydigan asoratlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. InfuziY. Zamonaviy qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar. Infuzion suyuqliklarni tayyorlash va organizmga yuborish texnikasi. TransfuziY. Qon quyish usullari. Bemorni qon quyishga tayyorlash. Qonni vaakumli sistema orqali olish. Bemorga qon quyilgandan keyin hamshira parvarishi. Veneseksiya va venepunksiY. Infuziya o'tkazish uchun jihozlar. Ampuladan dori vositasini olish. Periferik venalar kateterizatsiyasini o'tkazish texnikasi. Vena ichi inyeksiyasini o'tkazish. Tayyorlangan infuzion suyuqlikni kateter orqali yuborish. Qon preparatlari va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar. Qon quyishda uchraydigan xatoliklar. Asoratlar va ularni oldini olish. Gemokontakt infeksiya, OIV/OITS haqida tushuncha va tibbiyot hodimlarini ulardan himoyalaniishi. Desmurgiya haqida tushuncha. Bog'lam turlari. Bog'lam qo'yish qoidalari. Bog'lov materiallarni mahkamlash usullari. Turli xil bog'lov materiallari va ularni mahkamlash usullari (yelimli, leykoplastirli, elastik bintlarni qo'llash). Tananing turli sohalariga (boshga, bo'yinga, ko'krak va qorin sohasiga, oyoq-qo'llarga, oraliqqa) bintli bog'lamlarni har xil ko'rinishlarda bog'lash. Qattiq bog'lamlarni qo'yish qoidalari. Gips sifatini aniqlash, gipsli bint, gipsli longetalar tayyorlash va ularni yechish. Qattiq bog'lamlarning zamonaviy turlari.

#### **2.6. Modul. Shikastlanishlar va jarohatlar.**

Shikastlar haqida tushuncha. Shikastlar tasnifi. Yumshoq to'qima shikastlari. Suyaklar sinishi va chiqishi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari. Transport immobilizatsiyasi. Immobilizatsiya o'tkazish turlari. Bemorlarni tekshirish va davolashning zamonaviy usullari. Bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Kalla-miya shikastlari va kasalliklari. Mahalliy belgilari. Turli etiologiyali kalla-miya shikastlari va kasalliklari operatsiyalari uchun asboblar to'plami. Ko'krak qafasi a'zolari, bo'yin shikastlari va kasalliklari. Ko'krak qafasi a'zolari, bo'yin shikastlari va kasalliklari operatsiyalari uchun asbob-anjomlarni to'plash. Umurtqa pog'onasi va chanoq suyaklari shikastlari va kasalliklari. Umurtqa pog'onasi va chanoq suyaklari shikastlari va kasalliklari uchun qo'llaniladigan asboblarni to'plash. Oyoq-qo'llar yumshoq to'qimalarining xirurgik kasalliklari. Qo'l va oyoq shikastlari. Qo'l-oyoq kasalliklari va

shikastlarida operatsiya uchun asboblarni to'plash. Skeletdan tortish uchun asboblarni yig'ish. Jarohatlar haqida tushuncha, turlari, belgilari, davosi, bitishi. Jarohatlarni davolash. Infeksiya tushgan va yiringli jarohatlarni davolash. Toza va yiringli jarohatlarga ishlov berish uchun asbob-anjomlarni yig'ish. Jarohatga bog'lam qo'yish usullari va texnikasi. Choklarni qo'yish va olish. Mishel chegaralarni qo'yish. Qoqshol, gazli gangrena, quturish kasalliklarini oldini olish va hamshiralik parvarishi. Kuyish. Sovuq olish. Elektrotravma. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, transportirovka qilish. Kuygan, elektrdan shikastlangan, sovuq olgan bemorlarga birlamchi jarrohlik ishlovini berish uchun asboblarni to'plash va ishlov berish.

**2.7. Modul. Xirurgik infeksiya. Yiringli operatsiyalardan keyin kasalxonada ichi infeksiyasini oldini olish.** Xirurgik infeksiya tasnifi, tarqalish yo'llari. Yallig'lanishning asosiy mahalliy belgilari. Mahalliy va umumiy xirurgik infeksiyalarning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tekshirish, davolash va parvarishlashning o'ziga xos xususiyatlari. O'tkir va surunkali xirurgik infeksiyalar, ularning klinik belgilari. Bemorlarni tekshirish, davolash va parvarish qilish xususiyatlari. Mahalliy xirurgik infeksiyon kasalliklar: furunkul, karbunkul, abscess, flegmona, gidradenit, saramas. Umumiy xirurgik infeksiyon kasalliklar: sepsis, gazli gangrena, qoqshol. Nekrozlar (gangrena), yotoq yaralar, yaralar, oqma yaralar. Qon aylanishining o'tkir buzilishlari. Obliteratsiyalovchi endarterit va ateroskleroz. Venalarning varikoz kengayishi. Trombozlar va emboliyalar. Nekrozlar va qon tomir kasalliklarining operatsiya vaqtida va operatsiyadan keyingi davrlarda kuzatiladigan asoratlari va kuzatiladigan asoratlarning profilaktikasi. Operatsiya xonasida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha tadbirlar.

**2.8. Modul. Qorin devori va qorin bo'shlig'i a'zolarining xirurgik kasalliklari.**

O'tkir qorin. Qorin devorining shikastlari va qorin bo'shlig'i a'zolarining kasalliklari. Qorin bo'shlig'i a'zolari shikastlarida operatsiyaga tayyorgarlik ko'rish va jihozlarni yig'ish. Qorin devori va kindikning rivjlanish nuqsonlari. Churralar, ularning turlari. Siqilib qolgan churralarda operatsiya uchun asboblarni yig'ish. Qorin devori va qorin bo'shlig'i a'zolarining shikastlari va kasalliklari bo'lgan bemorlarni parvarish qilish. Peritonit, uning turlari. Peritonitda qorin bo'shlig'ini drenajlash. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari va asoratlari. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklarida bemorlarni tekshirish, operatsiyaga tayyorgarlik ko'rish. O't pufagi, me'da osti bezi, chuvalchangsimon o'simta kasalliklari. O't pufagi, me'da osti bezi, chuvalchangsimon o'simta kasalliklari operatsiyalari uchun jihozlar yig'ish. Xoletsistektomiya. Appendektomiya. Ichak tutilishi turlari. Ichak invaginatsiyasi. Mezenterial tomirlar trombozi. Ichak kasalliklari diagnostikasi. Operatsiyaga ko'rsatmalar va asboblarni yig'ish. Kolostoma qo'yish. Ichak rezeksiyasi uchun asboblarni yig'ish. To'g'ri ichak va anus kasalliklari. Paraproktit, abscess va flegmonalarni ochish uchun asboblarni yig'ish. To'g'ri ichak kasalliklarida operatsiyaga tayyorgarlik ko'rish

**2.9. Modul. Urologik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.**

Urologik kasalliklarni etiologiyasi, klinik belgilari, shoshilinch yordam ko'rsatish. Qovuq va siydik chiqarish kanalining tug'ma nuqsonlari. Buyraklarning ochiq va yopiq shikastlari. Buyrak o'smalari. Qovuq va prostata bezi kasalliklari. Buyrak-tosh kasalligi. O'tkir siydik tutilishning sabablari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam. Jinsiy olat kasalliklari. Klinik belgilari. Tashxislash. Bemorlarni tekshirishning zamonaviy usullari (ultratovushli tekshirish, multiskaner kompyuter tomografiya, rentgenografiya, endoskopiya)ga tayyorlash. Qovuq va siydik chiqarish kanalining tug'ma nuqsonlari, buyrak shikastlari va kasalliklari operatsiyalarida asbob-anjomlar to'plami. Qovuq va prostata bezi kasalliklari operatsiyalarida asbob-anjomlar to'plami. Urologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.

**2.10. Modul. Onkologik kasalliklar. Operatsiyadan keyingi kuzatiladigan asoratlar va bemorlarni parvarishi.** O'smalar. Xavfli va xavfsiz o'smalar haqida tushuncha. Onkologik bemorlarni turli zamonaviy laborator diagnostik tekshiruvlarga tayyorlash: UTT, endoskopik, rentgenologik tekshiruvlar, pozitron-emission tomografiya (PET), magnit-rezonans tomografiya (MRT), sitologik va gistologik tekshiruvlar, Onkologik bemorlarni davolash tamoyillari. Onkologik kasalliklar operatsiyalarida asbob-anjomlar to'plami. Onkologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Hamshira deontologiyasi.

**DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminardarslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening-o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar. Mulyajlar. Videofilmlar.

#### **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:**

##### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
3. "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 4063 18.12.2018 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.
7. SanQvaM № 0342/17 -10 yanvar 2017 yil.

##### **4.3.2. Tavsifiya etilgan adabiyotlar:**

1. V.YE.Avakov, O.V. Churilova, A.M.Sharipov: "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshi." 2010 g.
2. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev: "Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari". 2007 y. Toshkent.
3. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo'yicha o'rtta tibbiyot xodimlari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Tashkent.2009.y
4. G.M.Semenov: "Sovremenniy xirurgiyechskiy instrumenti ". 2013 g.
5. N.V.Barikina, V.G.Zaryanskaya: "Sestrinskoye delo v xirurgii". 2008 g.
6. Bekmurodova M.: "Jarrohlik va reanimatsiya asoslarida hamshiralik ishi". Toshkent . "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2003 yil.

##### **4.3.3. Elektron ta'lim resurslari:**

1. O'zR Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi – [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)
3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>
4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>
5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>
6. [www.adti.uz](http://www.adti.uz)
7. <http://www.medlinks.ru>

#### **5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

##### **5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar**

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi №160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.

